

Axborot xabari

2019 12 Dekabr

Namangan aeroportida yomon ob-havo sharoiti saqlanib qolganligi sababli, HY-669 Toshkent-Namangan qatnovi Farg'ona aeroportiga parvoz qildi. Ammo ob-havo sharoitlari keskin ravishda yomonlashgani va aeroportda qo'nish imkoniyati bo'lmagani sababli, Airbus A320 samolyoti "Toshkent" aeroportiga qaytdi.

Toshkent-Namangan yo'nalishidagi qatnovning parvoz vaqti keyinroq e'lon qilinadi.

"Uzbekistan Airways" AJ nomidan samolyotning "Toshkent" aeroportiga qaytishi bilan bog'liq noqulayliklar uchun uzr so'raymiz va tushunishingizga umid qilamiz!